



XALQ DEPUTATLARI BULUNG'UR TUMAN KENGASHINING QARORI

2021 - yil 15 - iyul

VI-36-5-7-93-K/21

Bulung'ur tuman hokimligi

Tuman mahalliy budjetining 2021-yil boshiga saqlangan erkin qoldiq mablag'i hisobidan ajratiladigan mablag'lar to'g'risida

Tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri J.Narziyevning 2021-yil 29-iyundagi 02/02-38/170-sonli xatida tuman hokimining biribchi o'rinbosari D.Xabibullayevning 2021-yil 23-iyundagi 02/02-2520-sonli xatiga tumandagi 15 nafar buyrak yetishmovchiligiga chalingan be'morlarga kerak bo'ladigan dori-darmonlar uchun tuman mahalliy budjetining 2021-yil boshiga saqlangan erkin qoldiq mablag'i hisobidan iyun oyi to'lovlari uchun 15,0 mln. so'm miqdorda mablag' ajratishni tavsiya etgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, O'zbekistan Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 24-moddasiga asosan xalq deputatlari tuman Kengashining XXXVI-sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Tuman hokimligi moliya bo'limi mudiri J.Narziyevning 2021-yil 25-iyundagi 02/02-38/170-sonli xati ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Bulung'ur tumani hokimining birinchi o'rinbosari (D.Xabibullayev), tuman hokimligi moliya bo'limi (J.Narziyev), tuman g'aznachilik bo'linmasi (E.Niyozov)larga;

tumandagi 15 nafar buyrak yetishmovchiligiga chalingan be'morlarga kerak bo'ladigan dori-darmonlar uchun tuman mahalliy budjetining 2021-yil boshiga saqlangan erkin qoldiq mablag'i hisobidan iyun oyi to'lovlari uchun 15,0 mln (o'n besh million) so'm pul mablag'i ajratilsin.

3. Tuman hokimligining bosh hisobchisi (A.Egamberdiyev) belgilangan mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlasin.

4. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Bulung‘ur tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Nomazov) zimmasiga yuklatilsin.

Кенгаш раиси



Б.Бахрамов